

## DARSLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Usmonova Sharifa Gulamovna**  
Filologiya kafedrası o‘qituvchisi  
University of economics and pedagogy

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta’lim sohasida jadallik bilan olib borilishi kerak bo‘lgan o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maqola orqali ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi hamda o‘quvchining roli, fikrlashi hamda dunyoqarashlarining bir-biriga bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, darsning ijod mahsuli ekanligi, lekin bu ijodkorlik faqat o‘qituvchi uchun emas, balki o‘quvchi uchun ham ijodkor ekanligi ta’kidlanib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, pedagogika, axloq, dars, texnologiya.

## ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ

### АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждалась важность использования современных методов обучения в сфере образования. Через статью будет обсуждаться взаимосвязь роли, мышления и мировоззрения учителя и ученика в образовательном-воспитательном процессе. Также отмечалось, что урок является продуктом творчества, но творчество является творческим не только для преподавателя, но и для ученика.

**Ключевые слова:** воспитание, образование, педагогика, урок, технология.

## VALUE OF USING MODERN METHODS IN LESSONS

### ABSTRACT

This article discussed the importance of using modern teaching methods in education. Through the article, the relationship between the role, thinking and worldview of the teacher and student in the educational and educational process will be discussed. It was also noted that the lesson is a product of creativity, but creativity is creative not only for the teacher, but also for the student.

**Key words:** education, education, pedagogy, lesson.

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi bor. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish va bu orqali yosh avlodni tarbiyalashdek yuksak mas'uliyatli vazifa oldimizda turibdi. Hozirgi davrda respublikamizda ta'lim sohasi o'ziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslikning natijasi sifatida, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliyashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitishdan iborat. Bu holat barcha o'qituvchilarning ham qalbida yuksak g'urur hislarini shakllantiradi. Mana shu sharoitda hammamiz juda katta ko'tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashimizni taqozo etadi. Zero taniqli ma'rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz. Avloniyning bu so'zlari 20-asr boshlarida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik, balkim undan ham ko'proq muhim ahamiyatga egadir. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondoshishni, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan ham foydalanishimizni taqozo etadi. Eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'lumki an'anaviy o'qitish usuli mamlakatimizda keng tarqalgan. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning o'z yechimini topa olmayotganligini, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyaning o'zi nima, unga qanday erishib bo'ladi? Yangi pedagogik texnologiya (YaPT)- bu qandaydir mavhum, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshirib bo'lmaydigan narsa emas. Bu murakkab uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon o'qituvchining bosqichma-bosqich pedagogik mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko'tarilishi kabi nihoyatda qiyin mashaqqatli mehnatning samarasi sifatida har bir o'qituvchi erishishi mumkin bo'lgan mahorat cho'qqisidir. Modomiki pedagogik texnologiya bosqichma-bosqich qo'lga kiritilar ekan, uning bosqichlarini qarab chiqaylik. Pedagogik texnologiyani egallash eng avvalo, tinimsiz mehnat, har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashini taqozo qiladi. Bu ish dastlab ilg'or pedagogik tajribalarni o'rgatishdan boshlanishi lozim. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va yoyish o'qituvchilar uchun o'z kasb mahoratlarini takomillashtirishning tajribali eng qulay shaklidir.

Ilg'or pedagogik faoliyatga ijodkor va novatorlarga yondoshib, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning yangi yo'llarini izlab topishdir. Keyingi paytlarda "Ilg'or

pedagog”, “Lider ustoz”, “Novator pedagog” tushunchalari matbuot sahifalarida, pedagoglarning o‘zaro suhbatlarida, uslubiy kengash, seminar va konferensiyalarda ko‘p tilga olinmoqda.

“Ilg‘or pedagog” avvalo, boshqa o‘qituvchilarga qaraganda o‘z ishiga mas’uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o‘rganib o‘z darslarida, maktabda va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo‘llaydi. Shu orqali o‘quvchilarni ta’lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritadi.

“Novator pedagog” bizningcha o‘zining yaxlit pedagogik vosita va usullarini mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o‘qituvchilarda ilmiy tahlil, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligida g‘oyat murakkab boshqalar o‘ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o‘z ishlarining to‘g‘ri ekanligiga ishonch bo‘ladi.

“Ijodkor o‘qituvchi”da ham “Ilg‘or pedagog”dagi xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Ularning jiddiy manbalarni o‘rganib shular asosida ish olib borsa, ijodkor o‘qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko‘z bilan qaray biladi. Ko‘p hollarda mavjud uslubiy yo‘l-yo‘riqlarga o‘z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga o‘zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi.

Ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma’lum mezonlarga asoslanishi kerak. Bunda eng muhim mezon o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llaydigan ta’lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va usulidir. Bu mezon ilg‘or o‘qituvchini oddiy o‘qituvchilardan ajratadigan eng muhim belgisidir. O‘qituvchi qo‘llaydigan yangilik turlicha masalan, ta’lim yoki tarbiyaning yangi mazmuni, shakli, metodi, pedagogik mehnatning eng ta’sirchan takomillashtiruvchi yo‘llarini belgilashdan iborat bo‘lishi mumkin. Ilg‘or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijalarga erishishi uchun zamin hozirlashidir. Bunda o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. Qo‘yilgan bahoga, o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soni emas ularning o‘quvchilarni inson sifatida shakllanishiga ta’sirining mezoni sifatida qarash lozim. Chunki yuqori natijaga erishishda o‘quvchilar va o‘qituvchilarning kuchini, vaqtini tejash, ularni toliqtirishdan asrash ham muhimdir. Ilg‘or pedagog tajribaning o‘z-o‘zidan emas, balki ommaviy tajriba shakllangan tajribalar, boshqa o‘qituvchilarning ish uslubi bilan vorislik asosida tarkib topishi uning ta’sirchanligini oshiradi va tarqalishini osonlashtiradi. Bu mezonlar ilg‘or pedagogik tajribalarni oddiy tajribadan ajratish va uni avaylab yoyishga yordam beradi. Pedagogik mahorat o‘z ichiga pedagogik texnikani oladi. Pedagogik texnikaning yana bir muhim tarkibiy qismi pedagogning mimik, tantomimik harakatlaridir. Aniq imo-ishora, yuz-ko‘z, gavda harakati, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta’sir ko‘rsatishda so‘z bilan tushuntirishga qaraganda ancha samarali muomila vositasi bo‘la oladi.

Pedagogik texnikani egallash o'qituvchining eng yaxshi tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishini ta'minlaydi. U o'qituvchining kuchini, vaqtini tejab, ijodiy ishlashi uchun sharoit yaratadi. Pedagogik texnologiya pilappoyalari sari intilayotgan o'qituvchi uchun keyingi bosqich pedagogik ijod qilishni bilishi kerak. Pedagogik ijod - fan va san'atning yaxlitligidan iborat faoliyat. Pedagogik ijod faoliyati sifatida yangilik yaratish bo'lib, o'zining takrorlanmas ijtimoiy mohiyati bilan ajralib turadi. Pedagogik ijodning o'ziga xosligi, takrorlanmasligi shundaki, uning mahsuli sifatida inson shaxsi shakllanadi. Pedagogika fanida amaliy faoliyatni ilmiy ijoddan farq qilmoq kerak. Ilmiy ijod jarayonida ta'lim tarbiyaning avval noma'lum bo'lgan yangicha nazorat va oqibatida hozirgi zamon maktabining murakkab muammolari yechiladi, kelajakda uning rivojlanish istiqbollari belgilanishi mumkin. O'qituvchi faoliyatida ijod turli shakllarida va mazmunda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ijodning bosqichlari to'g'risidaga masala qo'yilsa xato bo'lmaydi.

Pedagogik ijod jarayonida ta'lim-tarbiyaga butunlay yangicha yondashish ishlab chiqilishi, yangicha shakl, uslubiy usul, vositalarni yangicha sharoitda qo'llanilishini asoslanishi yoki ularni yangicha vazifalar talabi asosida takomillashtirish nazariy va uslubiy xulosalarni pedagogik jarayonga qo'llash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dars - bu ijodkorlik, lekin ijodkorlik faqat o'qituvchi uchun emas, balki o'quvchi uchun ham ijodkorlikdir. O'quvchining darsda faol qatnashmasligi darsning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. O'qituvchi darsda o'quvchilar hamkorligisiz qanchalik mehnat qilmasin, u darsda yakkalanib qolgan holda o'ziga o'zi dars o'tadi. Dars har bir o'quvchini ijodkorga aylantirish, ularni darsda faol bo'lishga, qatnashishga, doimo fikrlari bayon etishga tayyorliklari-o'qituvchining pedagogik mahoratini belgilaydi. Bunday o'qituvchi o'quvchini bilim olishga qiziqтира olishi, undagi yashirinib yotgan motivasiyalarini ro'yobga chiqarishi, buning uchun ko'ngliga yo'l topish lozim. Avval qiziqtirish, so'ngra o'rgatish lozim. O'qituvchining fikri va so'zi o'quvchilarni yetaklashi, ularni o'ylash, mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va har gal yangidan-yangi qonun va qoidalarni faol ochishga imkoniyat yaratishi kerak. Buning uchun o'qituvchi faqat dars mavzusini har xilda qiziqarli ma'lumolar bilan boyitishi, o'quvchilarni fikrlashi uchun muammoli vaziyatlar hosil qilishi, ularda o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg'otish lozim.

Darsning muvaffaqiyatli va sifati o'quv guruhini muayyan mavzuni o'rganishga moil qilish, ularni yangi mavzuni qabul qilishga tayyorlanish diqqatni jalb qilishga juda bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga tayyorlash kerak. Agar o'quvchi gap nima haqida borayotganini tushunmasa bilim olishga bo'lgan munosabati va qiziqishi tezda so'nadi. Bizningcha, mustahkam bilim bo'lishi uchun har bir darsda o'quvchilar bilan o'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazilishi lozim va shu yo'l bilan o'quvchilar bilimini mustahkamlab olish mumkin.

Ma'lum bo'lgan materialdan noma'lumga o'tish ko'prigini qo'yish uchun o'quvchilarga mazkur fan boshqa fanlar bo'yicha o'tilgan mavzularga qaytib kelish uchun o'quvchilarga uyga vazifa berilishi lozim. O'qituvchining mahorati kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini o'z vaqtida aniqlab, olishdan iborat. O'quvchilarga nimani o'rganayotganlarini fahmlab olishlariga, nazariy bilimlarini amalda qo'llashlariga imkoniyat yaratish va o'rgatish lozim. Darsni shunday jihozlash kerakki, o'quvchilar o'z qo'llari, aqli, idroki bilan har xil sxema, tarqatma materiallar, o'yinlar, masala va misollardan foydalangan holda mustaqil ishlashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. O'quvchi bilimlarni yutib oluvchi nahang emas, balki-mash'aldir, uni yoqish, alanga oldirish lozim va shu alangani uzluksiz ushlab turishi lozim. O'qituvchi shunday bo'lishi kerakki, o'quvchilarga bilimlar asosini berish bilim olishga bo'lgan qiziqishini alanga oldirish, bilim olish yo'llarini o'rgatishdan iborat. Shunda o'quvchi erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmay, kelajakka umid bilan qaraydigan bo'ladi va yoshlikda yoqilgan mash'al bolaning butun hayoti davomida yonib turadi. Har doim zehni va ziyrak o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazaverish maqsadga muvofiq emas, shunday qilish kerakki, eng uyatchang va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham o'z fikri va mulohazalarini erkin so'zlab bersin. Savol-javob do'stona olib borilishi lozim. O'qituvchi dars mavzusini bayon etib hamma birgalikda bir fikrga kelishgan bo'lsa, mavzuning mohiyati ochilgan bo'lsa, dars nihoyasida befarq o'quvchilar qolmaydi. O'quvchilar bilim olishga qiziqib, yana ilgari tomon harakat qiladi natijada pedagogik jarayonda ilgari tomon harakat qiladi. Pedagogik ijodning eng muhim sharti shu sohani bilish, tushunish, uni sevish, unga jonkuyarlik, tashabbus bilan yondoshishdir. Shu bilan birga o'qituvchining yuksak umumiy madaniyatidir. Yuksak madaniyat keng tushuncha bo'lib, u eng avvalo o'qituvchining chuqur bilim saviyasi, har tomonlama qiziqishlarini, yuksak rivojlanganligini, ijtimoiy faolligini, kamtarin, mehnatsevarligini, pedagogik odobini, jamoa va o'quvchilar bilan muomalasi, kelajakka ishonchini, xushchaqchqligi kabi xislatlarining majmuasini o'z ichiga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq"-Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 11-bet.
2. N.X. Avliyakov, N.N. Musayeva. Pedagogik texnologiya. Toshkent: "Tafakkur bo'stoni" 2012. 25-bet
3. B. Farberman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent. "Fan" 2000. 95-bet.